




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE



+998335668868



<https://innoworld.net>

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

Gender tengligining konstitutsiyaviy asoslari.**Toxirov Abdulaziz Alimardonovich**

Farg'ona Davlat Universiteti Tarix fakulteti

Yurisprudensiya 1 kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada gender tengligining xalqaro va konstitutsiyaviy asoslari, ularning huquqiy va ijtimoiy mazmuni tahlil qilinadi. Unda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga oid normalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, gender siyosatini amalga oshirishda xalqaro huquqiy hujjatlarning, xususan, "Ayollar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyasining ahamiyati yoritiladi. Maqolada konstitutsiyaviy normalarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari, ularning davlat siyosati va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatidagi o'rni tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida gender tengligining mustahkam konstitutsiyaviy asoslari jamiyatda adolat, demokratiya va inson huquqlarini ta'minlashning muhim omili ekanligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: gender tengligi, konstitutsiyaviy huquq, xalqaro huquq, inson huquqlari, ayollar va erkaklar tengligi, huquqiy kafolatlar, demokratik jamiyat, gender siyosati, huquqiy islohotlar, barqaror rivojlanish.

Kirish: Inson huquqlari va ijtimoiy adolat zamonaviy demokratik jamiyatlarning tayanchi bo'lgan hodisalardir. Ulardan eng dolzarblaridan biri — jinsga qarab fuqarolarga qo'yiladigan cheklovlar va imkoniyatlar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish, ya'ni gender tengligi tamoyilidir. Gender tengligi nafaqat ma'naviy va ijtimoiy qadriyat sifatida balki huquqiy va siyosiy jihatdan ham davlat strukturalarining mustahkamligini ta'minlaydigan omilga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, gender tengligining "konstitutsiyaviy asoslari" deganda — davlatning oliy qonuni va unga bog'liq huquqiy hujjatlardagi jinslararo tenglikka doir normativ mexanizmlar, shuningdek ularning amalda tatbiq etilishi tushuniladi.

Konstitutsiya davlatning huquqiy tizimida eng yuqori darajadagi hujjat bo'lib, unda olinadigan qat'iy prinsiplarga tayanib, barcha boshqa qonun hujjatlari, siyosatlar va institutlar shakllanadi. Gender tengligi masalasida konstitutsiyaviy jaminning mavjudligi — ayollar va erkaklar o'rtasida teng huquq va imkoniyatlarni izchil ta'minlash, davlat tomonidan bu borada majburiyatlar yuklanishini kafolatlaydi. Bundan tashqari, davlatlarning xalqaro huquqiy hujjatlarga qo'shilishi va milliy qonunchilik bilan integratsiyalashuvi ham gender tengligini ta'minlashda muhim omilidir.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida: "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi. (58-modda) Shuningdek, huquqiy maqola 42-modda orqali ayollarni homiladorlik yoki

bolasi borligi bois ishga qabul qilinmaslik, ishdan bo'shatilish yoki maoshi kamaytirilish taqiqlanishi belgilanganligi ta'kidlangan. Bu shuni anglatadiki, O'zbekistonda gender tengligi tamoyilining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi ko'zda tutilgan.

Boshqa tomondan, rivojlangan davlatlarning tajribasiga e'tibor qilsak — Buyuk Britaniya va AQSh misollari muhim o'rinda turadi. Buyuk Britaniyada 2010-yilda qabul qilingan Equality Act 2010 barcha fuqarolarni, jinsidan qat'i nazar, diskriminatsiyadan himoya qiluvchi asosiy huquqiy hujjat bo'lib, "sex" (jins) kabi xususiyat bo'yicha kamsitishni taqiqlaydi.

AQShda esa jinsga asoslangan kamsitishni to'liq konstitutsiyaviy normaga aylantirishga qaratilgan Equal Rights Amendment (ERA) ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uning ratifikatsiyasi masalasi hanuzgacha yakunlanmagan. ERA matnida: "Equality of rights under the law shall not be denied or abridged by the United States or by any State on account of sex". Bu holat, zamonaviy konstitutsiyaviy huquqiy muhitda gender tengligini kafolatlash bo'yicha davlatlar o'rtasidagi farqlarga yaqqol misol bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, gender tengligining konstitutsiyaviy asoslari tahlili shundagina to'liq bo'lishi mumkinki: bir tomondan milliy konstitutsiyalar va qonunchilik xalqaro huquq bilan bog'langani, boshqa tomondan ularning real amaliyotda qanday ishlayotgani — davlatlar o'rtasida solishtirilgan holda — ko'rib chiqilsin. Bu maqolada aynan shunday yo'l tanlanadi: birinchi navbatda O'zbekistondagi konstitutsiyaviy huquqiy bazani chuqurroq o'rganamiz, so'ngra Buyuk Britaniya va AQSh tajribasini taqqoslab, oxirida o'zimiz uchun xulosa va takliflarni shakllantiramiz.

O'zbekiston kontekstida gender siyosatini mustahkamlash, ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish — davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida ko'rilmoqda. Masalan, O'zbekiston hukumati ayollar huquqlarini himoya qilish va gender tengligini rivojlantirishni davlat siyosati komponenti sifatida belgilagan. Bu esa nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham gender tengligi yo'lida davlatning faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning gender tengligi va ayollar huquqlari hamda jamiyatdagi rol haqida qilgan bir necha muhim iqtiboslari haqida shunday degan edi: "Inson qadr-qimmatini va obro'si, avvalo, azizu muqaddas onalarimizga, ayollarimizga qilinadigan hurmatdan boshlanadi".

Rivojlangan davlatlar tajribasiga yana bir bor e'tibor qilsak — Buyuk Britaniyada Equality Act 2010 nafaqat qonun hujjati sifatida, balki davlat organlari, ish beruvchilar va jamiyat institutlari tomonidan amalga oshiriladigan majburiyatlarni belgilaydi. Masalan, qonunda ish joylarida jinsga ko'ra ish haqi farqi qilmaslik, homiladorlik yoki emizish davrida ayollarga nisbatan kamsitishni taqiqlash kabi moddalar mavjud. AQShda esa ERA hali to'liq konstitutsiyaviy norma sifatida joriy etilmagan bo'lsa—ham bu borada huquqiy islohotlar va jamoatchilik talablari kuchli —

bu holat ko'plab huquqshunoslar tomonidan gender tengligi: qonun oldida jins bo'yicha kamsitilmaslik tamoyilini amalda mustahkamlash uchun muhim bosqich deb baholanmoqda.

Ushbu taqqoslovchilik yondoshuv orqali biz gender tengligi konseptsiasining milliy konstitutsiyaviy bazasi — ya'ni Konstitutsiyaning tegishli moddalarida keltirilgan normalar, davlatning ularga bo'lgan majburiyatlari va amaliyotga tatbiq etilishini — tahlil qilish imkoniyatini yaratayapmiz. Aynan shu nuqtai nazar bilan, keyingi bo'limlarda O'zbekiston, Buyuk Britaniya va AQSh kontekstida gender tengligining konstitutsiyaviy asoslari qanday shakllangan, qaysi mexanizmlar ishlamoqda, va qaysi jihatlarida rivojlanish zarur ekanligi batafsil ko'rib chiqiladi.

Ayrim masalalar:

1. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng inson huquqlarini, ayniqsa ayollar huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** bu yo'nalishda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. **Konstitutsiyaning 58-moddasida** shunday norma belgilangan: "Erkaklar va ayollar teng huquqlarga ega. Davlat erkaklar va ayollar o'rtasida ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi."

Mazkur norma avvalgi (1992-yilgi) Konstitutsiyadagi "erkaklar va ayollar teng huquqli" degan umumiy ifodani kengaytirib, davlat zimmasiga **"ijtimoiy tenglikni ta'minlash majburiyatini"** yukladi. Bu esa gender tenglikni **konstitutsiyaviy prinsipdan amaliy kafolat** darajasiga ko'tardi. Shuningdek, **15-moddada** "O'zbekiston insonparvar demokratik huquqiy davlat" deb belgilanishi ham gender tengligining umumiy konstitutsiyaviy asosini mustahkamlaydi, chunki insonparvarlik va adolat prinsiplari ayollar huquqlarini himoya qilishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston gender tengligini ta'minlash borasida konstitutsiyaviy prinsipni rivojlantiruvchi bir qator qonun va qarorlarni qabul qilgan: "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi mazkur qonunning 6-moddasida aytilishicha, "Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilikni kafolatlaydi". Bu qonun davlat organlariga, xususan, mahalliy hokimiyat, ta'lim muassasalari va korxonalarga gender tahlilini joriy etish majburiyatini yuklaydi.

2. Rossiya Federatsiyasida gender tenglik masalalari **Konstitutsiyaning 19-moddasida** huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Mazkur moddaning uchinchi qismida quyidagicha belgilangan: "Davlat erkaklar va ayollar uchun teng huquq va erkinliklarni kafolatlaydi hamda ularni amalga oshirish uchun teng imkoniyatlar yaratadi". Bu norma **konstitutsiyaviy kafolat** sifatida muhim ahamiyatga ega, chunki u: Yuridik jihatdan bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lish va bu huquqlarni amalga oshirish uchun teng sharoit

yaratish tamoyillarini o'z ichiga oladi. Rossiya Konstitutsiyasida gender tenglik inson huquqlarining umumiy prinsipi sifatida belgilangan. Shu bilan birga 17-moddada "Rossiya Federatsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadi." Bu norma tenglik prinsipini konstitutsiyaviy asos bilan mustahkamlaydi, ya'ni gender tenglik – inson qadiryatining kosntitutsiyaviy ifodasidir.

Shu bilan bir qatorda Rossiyada konstitutsiyaviy amalda qo'llab-quvvatlash uchun bir qator federal qonunlar va davlat dasturlari ishlab chiqarilgan: "Erkaklar va ayollar uchun teng huquq va teng imkoniyatlar to'g'risida"gi qonun loyihasi 1990-yillarda beri muhokamada bo'lgan ushbu qonun loyihasi hali to'liq qabul qilinmagan, biroq uning ayrim qoidalari mehnat, ta'lim va ijtimoiy siyosat qonunchiligida aks etgan.

Rossiya Mehnat kodeksining 3-moddasida jins, yosh, irqi, millat, din, siyosiy e'tiqod yoki ijtimoiy holatiga ko'ra kamsitish taqiqlanadi. Shu bilan birga tarixdan mavjud bo'lgan "ayollar uchun taqiqlangan kasblar ro'yxati" (harbiy, dengiz, og'ir sanoat sohalarida) 2019-yilda qisqartirilgan. 2017yilda esa Rossiyada "2017-2022 yillarda ayollar uchun imkoniyatlarni kengaytirish va ijtimoiy rolini kuchaytirish strategiyasi" qabul qilindi. Bu hujjat gender tenglikni: mehnat bozorida, siyosiy hayotda, oilaviy siyosatda kengaytirishni maqsad qilgan. 2022-yildan boshlab ushbu strategiya yangilanish jarayonida bo'lib, Rossiya ijtimoiy taraqqiyot vazirligi tomonidan 2025-2030-yillarda mo'ljallangan "Ayollar siyosati konsepsiyasi" ishlab chiqilmoqda. Va shu o'rinda Rossiyaning "Ilm Group" kompaniyasida bosh direktor bo'lib ishlagan "Ксения Соснина" gender tengligi haqida shunday deydi: «Уверена, что гендерное равенство не только возможно, но и неизбежно в России... Каждый год, с каждым новым поколением доля людей, для которых равенство возможностей — норма, всё больше...».

Rossiya Konstitutsiyaviy sudi bir necha bor gender tengligi prinsipini tasdiqlovchi qarorlar chiqargan. Masalan, 2010-yil 30-noyabrdagi №1653-O qarorida sud ayollarning pensiya yoshidagi farqni ijtimoiy himoya shakli sifatida e'tirof etgan, ya'ni bu **kamsitish emas, balki ijtimoiy kompensatsiya** sifatida talqin qilingan.

O'zbekiston tajribasida ham Konstitutsiyaviy sud bir qator qarorlarida **inson huquqlari va tenglik prinsiplariga asoslanib**, ayollar va erkaklarning teng huquqli ishtirokini himoya qilgan. Masalan, **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi Plenumining 2020-yil 30-iyuldagi qarorida**, gender tenglik masalalari ijtimoiy adolat va huquqiy davlat tamoyillari bilan uzviy bog'liq ekani ta'kidlangan. O'zbekiston va Rossiya davlatlari konstitutsiyaviy darajada gender tenglikni e'tirof etgan va uni amalga oshirish uchun maxsus qonuniy mexanizmlar ishlab chiqqan. O'zbekistonda bu soha **davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi** darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, Rossiyada esa **strategik konsepsiyalar va sotsial dasturlar orqali** amalga oshirilmoqda.

3. Germaniya gender tengligi tamoyilini konstitutsiyaviy darajada



mustahkamlab qo'ygan davlatlardan biridir. 1949-yilda qabul qilingan "Asosiy qonun (Basic Law)"ning 3-moddasida quyidagi norma keltirilgan: "Erkaklar va ayollar teng huquqlidir. Davlat erkaklar va ayollar o'rtasidagi haqiqiy tenglikni ta'minlash va mavjud nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun choralar ko'radi." Bu modda nafaqat formal huquqiy tenglikni, balki amalda ham ayollar huquqlarini kafolatlash majburiyatini davlat zimmasiga yuklaydi. Germaniya hukumati 2020-yilda "Gender tengligi bo'yicha milliy strategiya"ni tasdiqlagan bo'lib, u ayollarning siyosat, iqtisod va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan. Shunga qaramay, amaliyotda ayrim sohalarda tenglik to'liq ta'minlanmagan: masalan, ayollar o'rtacha 18% kamroq maosh oladi va rahbar lavozimlarda ularning ulushi hali past. Bu holat konstitutsiyaviy norma bilan amaliy natija o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi. Germaniyada 2016-yil holatiga ko'ra, ayollar erkaklarga nisbatan o'rtacha **21% kamroq** ish haqi olgan. Bu tafovut — "Gender Pay Gap" deb ataladi. Yevropa Ittifoqi davlatlari ichida bu ko'rsatkich bo'yicha Germaniya eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga ega edi. Shu sababli 2017-yilda hukumat (Angela Merkel davrida) bu muammoni huquqiy darajada hal qilish uchun **Entgelttransparenzgesetz**ni qabul qildi. Qonunning 7-moddasiga ko'ra: "Hech kim jinsiga ko'ra mehnat haqida kamsitilmasligi kerak. Erkaklar va ayollar bir xil yoki teng qiymatdagi ish uchun teng haq olishlari shart". Bu norma **BMTning 100-sonli Konvensiyasi** (Equal Remuneration Convention, 1951) va **Yevropa Ittifoqining 2006/54/EG direktivasi** asosida ishlab chiqilgan.

Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, **konstitutsiyada tenglik tamoyilini e'tirof etishning o'zi yetarli emas** — davlat bu prinsipni hayotga tatbiq etish uchun **aniq mexanizmlar, nazorat tizimlari va iqtisodiy kafolatlarni** joriy qilishi shart. Germaniyada gender tenglik nafaqat siyosiy bayonot darajasida, balki **ish haqi tizimi, rahbarlik lavozimlari, ta'lim siyosati va ijtimoiy himoya dasturlarida** amalda ro'yobga chiqarilgan.

2015-yilda qabul qilingan "**Xotin-qizlar uchun rahbarlik lavozimlari kvotasi to'g'risida**"gi **Qonun (FüPoG)** va 2017-yildagi "**Entgelttransparenzgesetz**" (ish haqi shaffofligi haqidagi qonun) gender tenglikni iqtisodiy va institutsional darajada ta'minlashning amaliy mexanizmlaridir. Ular orqali kompaniyalar rahbariyatida ayollar ulushi oshirildi, ish haqi farqlarining ochiqligi ta'minlandi va gender masalalari bo'yicha davlat nazorati kuchaytirildi. Natijada, Germaniya so'nggi yillarda Yevropada gender siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan davlatlardan biriga aylandi.

O'zbekiston tajribasida ham so'nggi yillarda gender masalalariga e'tibor keskin oshdi. **2019-yilda qabul qilingan "Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari, Gender tengligini ta'minlash strategiyasi (2020–2030-yillar) va Xotin-qizlar masalalari bo'yicha respublika komissiyasining tashkil**



etilishi bu boradagi muhim bosqichlardir. Bu hujjatlar konstitutsiyaviy prinsipni mustahkamlab, davlat siyosatining barcha darajalarida gender masalalarini integratsiya qilishga xizmat qilmoqda.

Takliflar:

1. O'zbekiston Konstitutsiyasida gender tengligi prinsipining mavjudligini amalda kuchliroq mexanizm orqali ta'minlanishi lozim. Shu maqsadda **Konstitutsiyaviy sud tarkibida "gender diskriminatsiyasi" masalalari bo'yicha alohida yo'nalish yoki bo'lim** tashkil etilishi mumkin. Bu bo'lim fuqarolardan tushgan **konstitutsiyaviy shikoyatlarni** ko'rib chiqib, qonun va qarorlarning gender tenglik prinsipiga muvofiqligini baholaydi.

2. Hozirda siyosiy partiyalar ro'yxatida kamida **30 foiz ayollar** ishtiroki belgilangan. Biroq bu kvota faqat saylovlarda amal qiladi. Shu bois uni **davlat xizmatida, idora rahbarligida, korporativ sektor va mahalliy kengashlarda ham qonuniy norma sifatida** joriy etish lozim. Bu nafaqat gender muvozanatini ta'minlaydi, balki davlat boshqaruvida qarorlar qabul qilishda **ayollar ovozi**ning ishtirokini kuchaytiradi.

3. Amaliyotda ayrim tarmoqlarda ayollarning mehnat haqi erkaklarga nisbatan past bo'lib qolmoqda, xususan, xizmat ko'rsatish, ta'lim, tibbiyot, yengil sanoat sohalarida ayollar mehnati **erkaklarga nisbatan 15-25% kam** baholanmoqda. Shu bois **Mehnat kodeksi va Ijtimoiy himoya to'g'risidagi qonun** asosida **"Ish haqi gender auditi"** tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Mehnat kodeksiga "Ish haqi gender auditi"ni har 2 yilda bir marta o'tkazish majburiyatini kiritish hamda bu jarayonni nazorat qiluvchi Mehnat inspeksiyasi huzurida "Gender audit markazi"ni tashkil etishingizni taklif qilaman. O'zbekiston Respublikasi "Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)"ning bir qator konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan: 100-sonli Konvensiya — "Teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va ayollarga teng haq to'lash to'g'risida" (1951-yil) va 111-sonli Konvensiya — "Mehnat va kasbda kamsitish to'g'risida" (1958-yil). Bu xalqaro hujjatlar **mehnatga haq to'lashda gender tafovutini qonunan taqiqlaydi**. Shunga muvofiq, O'zbekiston qonun hujjatlarida ushbu konvensiyalarni amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlash muhim. O'zbekiston Respublikasi XMT bilan hamkorlik dasturi (Decent Work Country Programme 2022-2025).

4. Gender tenglikka oid qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlarini yagona hujjatga — **"Gender siyosati to'g'risida kodeks"** shaklida jamlash taklif etiladi. Bu normativ-huquqiy tartibni soddalashtiradi va barcha subyektlar uchun yagona huquqiy asos yaratadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda bu sohada qabul qilingan **Prezident farmonlari, qarorlar, qonunlar va hukumat dasturlari** turli tizimlarda mavjud bo'lib, ular o'zaro takrorlanish yoki normativ tafovutlarga ega. Shu sababli gender siyosatini yagona tizimga keltirish zarurati dolzarbdir.

Hozirda gender masalalari turli qonun, farmon, qaror va nizomlarda tarqoq holda mavjud. Bu esa ularni qo'llashda chalkashliklar keltirib



chiqaradi. Kodeks bu jarayonni yagona tizimga soladi. Kodeks asosida "Gender siyosati milliy portali" tashkil etish taklif qilinadi. Ushbu portal orqali: barcha genderni oid qonun va qarorlar jamlanadi, ularning ijrosi, statistika va hisobotlar e'lon qilinadi va fuqarolar gender huquqlari buzilganda elektron murojaat yuborish imkoniga ega bo'ladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash borasida sezilarli huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Lekin ba'zi bir hujjatlar **bir-biridan mustaqil** tarzda ishlab chiqilgani sababli, amaliyotda ayrim **huquqiy nomuvofiqliklar va normativ takrorlanishlar** yuzaga kelmoqda. Masalan, gender masalalarini boshqaruvchi bir nechta organlar (Xotin-qizlar qo'mitasi, Bandlik vazirligi, Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar qo'mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi huzuridagi bo'linmalar) mavjud, ammo ularning **faoliyati yagona markazlashgan tizimda muvofiqlashtirilmagan**. Ammo **bir davlatni misol qilish mumkinki, gender masalalari bo'yicha boshqacha tarzda yondashgan AQShni misol qilishimiz mumkin**.

AQShda gender masalalari **bitta Kodeks yoki yagona qonun orqali emas**, balki **ko'p darajali federal qonunlar tizimi** orqali tartibga solinadi. Masalan: **Title IX (1972)** — ta'limda gender tengligi yoki Lilly Ledbetter Fair Pay Act (2009) — ish haqi tengligini himoya qiladi. Ammo AQSh bu qonunlarni alohida-alohida emas, balki **Prezident devoni huzuridagi Gender siyosati kengashi (Gender Policy Council)** orqali **bitta tizimda muvofiqlashtiradi**. Bu kengash 2021-yilda Prezident Jo Bayden farmoni bilan tashkil etilgan va u barcha federal agentliklar faoliyatini **gender tenglik nuqtayi nazaridan baholaydi**. AQSh modeli huquqiy jihatdan emas, **institutsional boshqaruv** orqali yagona siyosiy tizim yaratadi. Bu degani — ular kodeks yozmaydi, balki mavjud qonunlarni yagona siyosiy markaz orqali uyg'unlashtiradi.

Ta'lim tizimida gender madaniyatini rivojlantirish uchun federal uslubdagi dastur AQShdagi **Title IX (1972)** ta'limda gender kamsitilishiga qarshi federal mexanizmni joriy etgan. Shu kabi O'zbekistonda ham **Maktabdan boshlab oliy ta'limgacha gender madaniyatini** shakllantiruvchi majburiy o'quv kurslari, darsliklar va treninglarni milliy dastur sifatida tasdiqlash maqsadga muvofiq. Va shu o'rinda **ijtimoiy tahlil va qonunchilik monitoringi tizimi yaratish zarur** AQShda har bir yangi qonun loyihasi gender ta'siri bo'yicha baholanadi (gender impact assessment). O'zbekistonda ham Oliy Majlis huzurida yoki Adliya vazirligi tarkibida **Gender-huquqiy ekspertiza markazi** tashkil etish lozim — bu markaz yangi qonunlarning ayollar va erkaklarga ta'sirini oldindan tahlil qiladi.

Xulosa:

Gender tengligining konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash — bu nafaqat huquqiy, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy barqarorlikni ta'minlovchi omildir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlanishi, davlat zimmasiga bu tenglikni amalda ta'minlash majburiyatining yuklanishi — demokratik



huquqiy davlat sifatida mamlakatning yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Gender tengligi nafaqat huquqiy norma — balki jamiyatdagi adolat, demokratiya va inson huquqlarini ta'minlashning markaziy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasidagi so'zlarida aytganidek: "Women who manage to care for their families, raise children, pursue education, work and engage in entrepreneurship are true heroines of our time. In New Uzbekistan, ensuring their well-being and creating conditions for their self-realization in all areas will remain a top priority of state policy". Bu ibora ayollar va erkaklar o'rtasidagi teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash davlat siyosati sifatida belgilanayotganini aniq tasvirlaydi. So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va davlat strategiyalari bu yo'nalishda mustahkam huquqiy poydevor yaratganini tasdiqlaydi.

Biroq, gender tengligini faqat huquqiy deklaratsiya darajasida emas, balki real amaliy mexanizmlar orqali ta'minlash zarur. Shu boisdan, maqolada ilgari surilgan "Gender siyosati to'g'risida kodeks"ni ishlab chiqish g'oyasi o'z vaqtida ilgari surilgan dolzarb tashabbusdir. Bu hujjat turli farmon, qaror va qonunlarda tarmoq holda mavjud normalarni yagona tizimga keltirib, davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun huquqiy muvofiqlik yaratadi. Shuningdek, "Gender siyosati milliy portali"ni tashkil etish orqali fuqarolarning huquqiy xabardorligini oshirish, qonunlarning ijrosini shaffof nazorat qilish va gender diskriminatsiyasiga qarshi onlayn murojaat tizimini joriy etish — zamonaviy e-hukumat yondashuviga mos keladi.

Xalqaro tajribadan, xususan AQSh modelidan ko'rish mumkinki, gender siyosatini yagona hujjat shaklida emas, balki **institutsional muvofiqlashtirish mexanizmi** orqali amalga oshirish ham samarali natija beradi. AQShda Prezident devoni huzuridagi **Gender siyosati kengashi** barcha federal qonun va dasturlarni gender nuqtai nazaridan baholaydi. "The Gender Policy Council was established by President Biden to advance gender equity and equality in both domestic and foreign policy". Bu misol shuni ko'rsatadiki: huquqiy hujjatlar bilan birga, faol koordinatsiya va monitoring tizimi ham kerak. Bu yondashuv O'zbekiston uchun ham muhim ibrat bo'lishi mumkin — ya'ni yangi qonun loyihalarini ishlab chiqishda "gender ta'sirini baholash tizimi" (gender impact assessment)ni joriy etish orqali qonunlarning real ijtimoiy natijasini oldindan tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Shuningdek, ta'lim tizimida gender madaniyatini shakllantirish, rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushini oshirish, mehnat haqi auditi tizimini yo'lga qo'yish — gender tenglikni konstitutsiyaviy prinsipdan amaliy qadriyat darajasiga olib chiqadi. Bunda xalqaro tashkilotlar, xususan, Xalqaro mehnat tashkiloti Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) bilan hamkorlikni chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, gender tengligini ta'minlash yo'lida O'zbekiston o'z milliy modelini shakllantirish bosqichida. Ushbu model konstitutsiyaviy

kafolatlar, xalqaro majburiyatlar va ijtimoiy islohotlarning uyg'unligiga asoslanmoqda. Endilikda vazifa — ushbu prinsiplarga tayanib, ularni amaliy hayotga tatbiq etish, davlat boshqaruvida, iqtisodiy faoliyatda va ta'lim tizimida gender tengligini real qadriyat sifatida mustahkamlashdan iboratdir. Bu esa mamlakatning demokratik rivojlanishi, ijtimoiy adolat va inson qadr-qimmatini ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. "Ayollar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida" konvensiya.
2. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirilar.(58modda) Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi. (42modda) <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. "Equality of rights under the law shall not be denied or abridged by the United States or by any State on account of sex."
4. "Inson qadr-qimmati va obro'si, avvalo, azizu muqaddas onalarimizga, ayollarimizga qilinadigan hurmatdan boshlanadi."
5. Definition Of Discrimination According To The Equality Act 2010.
6. Rossiya Federatsiyasini Konstitutsiyasi.
7. "Ксения Соснина"ning gender tebligligi haqida gapirgan gaplari.
8. 1949-yilda qabul qilingan ¹"Asosiy qonun (Basic Law)".
9. **Entgeltransparenzgesetz**ni qonuni Angela Merkel davrida muammoni huquqiy yechish maqsadida qabul qilingan qonun.
10. O'zbekiston Respublikasi ¹XMT bilan hamkorlik dasturi (Decent Work Country Programme 2022–2025 **Gender siyosati kengashi (Gender Policy Council)**).
11. Shavkat Mirziyoyev ning ayollar va erkaklarning huquq va erkinliklari haqida so'z yuritganlari <https://www.uzdaily.uz/en/mirziyoyev-women-are-the-true-heroines-of-our-time>
12. "The Gender Policy Council was established by President Biden to advance gender equity and equality in both domestic and foreign policy." <https://bidenwhitehouse.archives.gov/gpc/>